

– To‘g‘ri, akam Hasan bu gazetaga obuna bo‘ldi. Lekin men ham o‘z gazetam bo‘lishini xohladim va ushbu gazetaga bir yilga obuna bo‘ldim, – deydi poytaxtdagi 301-maktabning 2-sinf o‘quvchisi Husan VELIYEV.



2007-yil
17 – 23-sentabr
N:38
(66631)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan



JAVOB XATI KELDI

Bizning o‘quvchilarimiz o‘rtasida «Tong yulduzi» gazetasi eng sevimli va yetakchi gazetalardan biri hisoblanadi. Tasarrufimizdagi ta‘lim muassasalarida jami 244 mingdan ortiq o‘quvchi ta‘lim-tarbiya oladi. Shularning 100 ming nafari «Tong yulduzi» gazetasini o‘qiydigan yoshdagi o‘quvchilarni tashkil etadi. Boshqarma tomonidan 2008-yil obunasini o‘tkazish bo‘yicha targ‘ibot ishlari boshlab yuborildi. O‘quvchilarimiz o‘rtasidagi eng ommabop gazetalardan bo‘lgan «Tong yulduzi» gazetasini har bir o‘quvchiga yetib borishini ta‘minlash maqsadida, obuna ishlarini tashkillashtirish yuzasidan tuman, shahar xalq ta‘limi bo‘limlariga ko‘rsatmalar berildi. Viloyat xalq ta‘limi boshqarmasi «Tong yulduzi» gazetasi uchun 2008-yil obunasida sezilarli o‘zgarishlar qilinishini ma‘lum qiladi va obuna ishlarini qat‘iy nazorat ostiga oladi.

Shu o‘rinda takliflarimiz ham bor: bu gazeta uncha qimmat emas, shunga qaramasdan o‘quvchilarimizning qalblariga yana-da chuqurroq kirib borish maqsadida, krossvordlar, qiziqarli tabiat hodisalari va Ginnes rekordi kitobidan yangiliklar ko‘proq berib borilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Jizzax viloyati Xalq ta‘limi boshqarmasi
boshlig‘i v/b:
LANOBRBOYEV

SHUHRAT SUXANDON BO‘LDI

Bir kuni bolalar yig‘ilishib, kelajakda kim bo‘lishlari haqida gaplashdilar.

– Men muhandis bo‘laman, – dedi Umar degan bola o‘zi chizgan har xil chizmalarni o‘rtoqlariga ko‘rsatib.

– Menesa shifokor bo‘laman, – dedi Guli ismli qiz.

– Men suxandon bo‘laman, – dedi Shuhrat.

– Voy, qanday qilib suxandon bo‘lasan? Axir har gapingga «anavi», «manavi», «nimaydi» degan so‘zlarni qo‘shmasang, gapira olmaysan-u, – deyishdi bolalar. Bu gapdan Shuhrat juda xafa bo‘ldi. To‘g‘ri-da, o‘qituvchisi ham doim, qayta gapir, keraksiz so‘zlarni ishlatma, deydi-ku.

Shuhrat uyida ko‘zgu qarshisiga o‘tirib oldida, gapirishni mashq qila boshladi. Xayolan «Tong yulduzi»dagi maqolalarni tomoshabinlarga o‘qib bera boshladi...

Oradan yillar o‘tdi. Bolalar maktabni bitirib, turli kasblarni egalladilar. Shuhrat ham o‘z orzusiga erishdi, hozir u yetuk suxandon. Gaplarini eshitgan kishi, yana eshitsam, deydi. Buning uchun esa sevimli gazetasi behad minnatdor.

«Intilganga tole yor», deb shunga aytisalar kerak-da.

Maftuna RAHMONBEKOVA,
Alisher Navoiy nomidagi Respublika
Nafis san‘at litseyi o‘quvchisi

Biz bilan sira zerikmaysiz!

Bolalar, «Yoshlikda egallangan bilim, toshga o'yilgan naqshdir», degan maqolni eshitgansiz. Al-Buxoriy juda erta, hatto 9-10 yoshlaridan boshlab aql-idroki, o'tkir zehni, chuqur bilimi bilan elning og'ziga tushgan. Naql qilishlaricha, buxorolik Salim ibn Mujohid degan kishi o'sha zamonning taniqli insonlaridan biri Muhammad ibn salom Poykandiynikiga tashrif buyuradi. «Barvaqtroq kelganingizda, yetmish ming hadisni yod olgan bolani ko'radingiz», deydi Poykandiy. Salim ibn

Mushohid al-Buxoriy bilan yuzlanishga qiziqib, ko'chaga otiladi va uni quvib yetib: «Yetmish ming hadisni yod olgan bola senmisan?» deb so'raydi. Al-Buxoriy: «Bundan ham ortiqroq bilaman», deb javob qaytaradi.

Maktabda ham al-Buxoriyga teng keladigan bilimli bola yo'q edi. U to'g'riso'z bo'lganligi bois biror kishining, hatto ustozlari xato gapirsa, ularning yuziga haqiqatni aytishdan cho'chimasdi. Kunlardan bir kuni alloma Shayx Dohiliy bir hadis haqida gapirayotib: «Suhyon Abu Zubayradan, u esa Ibrohimdan eshitgan», deb aytadi. Ustozlari xafa bo'lib, uning gapini cho'rt kesadi. Shunda al-Buxoriy o'ta muloyim ohangda: «Ustoz, ishonmasangiz, asliga qarang», deydi. Shayx Dohiliy ichkari kirib kitobni ko'rsalar, al-Buxoriyning haq ekanligini biladi va u yerdan chiqib, sinamoq shartida: «Buni qanday tuzatish kerak?» deb so'raydi. Al-Buxoriy «Az-zubayr va Ibn Adiy bir shaxs bo'lib, u kishi Ibrohimdan rivoyat qilganlar!» deb javob qaytaradi. Shayx Dohiliy xatoni tuzatib: «Sen haqsan!» deydi.

Al-Buxoriy Misr, Shom, Mesopatiniyaga ikki

marta, Basraga to'rt marta borgan. Hijozda olti yil yashagan. «Bag'dod va Kuda shaharlariga necha marta borganining hisobi yo'q», deb yozadi u. U safar chog'ida ham yoki biror shaharda muqim turganda ham ilmini oshirishi maqsadida tinimsiz izlanar, hadislarni yod olar, ko'pincha oyning yorug'ida ijod qilib, qorong'u kechalarda sham yorug'ida kitob bitar edi.


Uning mashhur kitobi «Sahiyd al-Buxoriy» nomi bilan mashhur. Uning ahamiyatli tomoni

shundaki, Imom al-Buxoriy gacha o'tgan muhaddislar eshitgan barcha hadislarini saralab o'tirmasdan to'plamlariga kiritaverganlar. Al-Buxoriy esa turli rivoyatlardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning

ishonchlilarini ajratib, kitoblariga kiritgan. Hadislarning soni takrorlanadiganlari bilan 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda 4000 hadisdan iboratdir. Aytishlaricha, al-Buxoriyning o'zi 600 ming hadisni yod bilgan.


Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiqko'ngillik, ota-ona, ayollar va kattalarni hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da'vat etish kabi haqiqiy ijobiy fazilatlar va namunali tartiblar majmuasidir.

«Men bolaligimdan Imom al-Buxoriy hadislarini o'rganib, el orasida obro' qozondim», degan ekan donishmandlardan biri. Darvoqe, aziz bolalar, inson bir shakldir, u ilm bilan ziynat topadi.



BU KUNLARNI UNUTIB BO'LMAS

Ustoz minbari Inson shodlik damlarini, ayniqsa, o'z mamlakati, tarixi bilan bog'liq voqealarni bir umr qalbida saqlab qoladi. O'quvchilarimni ilk qabul qilgan kunni – Mustaqilligimizning 16 yilligini bayram qilgan daqiqalarimizni har kuni mamnunlik bilan eslayman. Maktab hovlimizda fayz bor edi o'sha kuni. Bir-biridan shirin bolakaylar qaldirg'ochlardek bir tekis, saf tortgan. Ularning yuz-ko'zlarida quvonch va shodlik balqib turardi. Ularga qarab to'ymas edim. Davraga olib kirilgan bayrog'imizning moviy, oq va yashil ranglari jilo berib, ko'zni quvontiradi. Bu bizning bayram. O'quvchilar jo'r ovozda madhiyamizni kuylab yuborganda, qalblar to'lqinlanadi. Maktab rahbari Gulnoza Ergasheva barchani bayram bilan qutlagani, tuman Xalq ta'limi uslubchisi Mansuba Yusupova va «Habibiy» mahalla ahli vakillarining so'zlari, so'ng kuy va qo'shiqlar yangrab, quvnoq bolalarning raqsga tushib ketishgani – barchasi ko'z o'ngimda yashnab takrorlanadi.



Yonimda turgan bolakay – Umidjon Qayumovning so'zlari ham qulog'im ostida jaranglab turibdi.

– Men katta bo'lib qoldim, faqat a'lo baholarda o'qiyman! – degan edi u.

Biz ustozlarning ham maqsadi shu: bolalarimiz a'lo o'qishsin. A'lo o'quvchilardan ko'p narsa kutsa bo'ladi.

Guliston QO'ZIYEVA,
poytaxtdagi 322-maktabning boshlang'ich
sinflar ilmiy mudiri

O'shanda do'stim Sarvar bilan maktabdan qaytib kelayotgan edik. Otabek do'stlari bilan yong'oq o'ynayotgan ekan. Aholiga ular ustimizdan kulishdi. Keyin birdaniga qulog'im ostiga qattiq narsa urildi. Qarasam, yong'oq ekan. Og'riqdan ko'zlarim yoshlandi. Sarvar oldimni to'sib, ularga: «Nimaga otasizlar, axir yomon tegdi-ku?!» dedi. Otabekning jahli chiqib, biz tomon yugurib kelayotganini ko'rib, «Yur Sarvar, ketaylik», dedim.

Otabek o'rtoqlari bilan bizni o'rab oldi va do'pposlay ketdi. Sarvar ikkimiz qocha boshlaganimizda, nima bo'ldi-yu, u toshga qoqilib, yiqilib tushdi. Men

MENI KECHIR



qo'rqqanimdan qochdim, do'stim esa qolib ketdi. Uyga keldim-u, joyimga yotib oldim, keyin nima bo'lganini bilmayman. Ko'zimni ochsam, shifoxonadaman.

Lekin tuni bilan uxlolmay chiqdim, ko'zimni yumishim bilan ko'z oldimga do'stim Sarvar kelardi. Onamdan u haqida so'raganimda, «Uyga boray, Nasiba xolangdan bilib, keyin senga aytaman», dedilar.

Ertasiga onam: «O'g'lim, Sarvar senga salom deb yubordi, albatta seni ko'rgani kelarkan, sendan xafa emas ekan», dedilar. To'g'risini aytsam, o'zimdan xafa bo'lib ketdim. Shifoxonadan chiqishga tayyorlanayotgan kunim onam bilan birga Sarvar kirib keldi.

– Qalay, Sardor, tuzaladingmi? Seni rosa sog'inib ketdim, – dedi u.


– Ha, tuzukman, mendan xafa emasman? – deb so'radim o'z navbatida. U esa: «Axir biz do'stimiz-ku, nega sendan xafa bo'laman, tur, ketamiz», dedi.

Shunday do'stim borligidan juda ham xursandman. U men bilan yaxshi va yomon kunlarda doimo birga bo'lishini bilaman.

Muhammadisлом ZOHIDOV

BIZNING QO'G'IRCHOQ TEATRIMIZ

4-5-sinfda o'qib yurgan kezarim qo'g'irchoq o'ynatib, bolalarga tomosha ko'rsatishga qiziqardim. Bu qiziqishim tobora kuchayarkan, ko'chamizdagi o'zim tengi qizlarni chaqirdim-da, ularga tomosha uyushtirish haqidagi fikrimni aytdim. Qizlar taklifimga jon-jon deb rozi bo'lishdi. Ertasi kunioq darsdan so'ng qo'g'irchoq yasashga kirishdik. Bu borada opam bizga yordam berdi. «Zumrad va Qimmat» ertagidagi Chol va Kampirni shunaqa o'xshatib tayyorladilar-ki, o'gay onaning qozon kuyasidan chizilgan qoshlari chimirilib turishi uning johilligini ko'rsatardi.



Birinchi tomoshamiz ko'chamizdagi bolalarga yoqdi. Ular miriqib tomosha qilishdi. Ertasi kuni «Zumrad va Qimmat» ertagini tayyorlab ko'rsatdik. Asta-sekinlik bilan qo'g'irchoqlarimiz soni ortib, «Qizil shapkacha», «Bo'ri bilan tulki», «Yolg'onchi cho'pon», «Sehrlangan malika» kabi ertaklarni teatrlashtirib, bolalarga ko'rsatdik.

Bir kuni otam hazillashib: «Sen bularga tomoshani tekinga ko'rsatasanmi?» deganlarida, gaplariga laqqa ishonib, bolalarga qarab: «Tomoshabinlar, bundan keyin hamma chipta puliga har xil meva berib kiradi», deganman.

Ertasiga maktabdan kelsam, darvozamiz oldida etaklariga, maykalarining ichiga olma-yu zardoli shaftoli solib olgan bir gala bolakaylar qaldirg'ochlarday tizilishib turishardi...

Hozir o'sha kunlarni eslasam, bolaligim quvnoq va sermazmun o'tganidan huzurlanaman. Demak, o'sha paytlar qalbimda iste'dod uchqunlari porlagan ekan-da, deb o'ylayman.

E'tibor MUSTAFO qizi,
Qashqadaryo

Ana shunaqa!

O'KTAMNING BOKUDAGI G'ALABASI

Bolalar, siz yaqindagina o'zbek boksini dunyoga ko'z-ko'z etgan Ruslan Chagayevning jasoratiga qoyil qolganiz. Shuningdek, XVIII karra jahon chempionligiga erishgan Artur Grigoryan, Olimpiada chempioni Muhammadqodir Abdullayev va ularning izdoshlari O'tkir Haydarov kabi nomdor bokschilarimizni ham yaxshi bilasiz.


Bugun esa bu nomlar qatoriga qo'qonlik 16 yoshli O'ktam Rahmonov ham qo'shildi.

Kuni kecha Toshkent xalqaro aeroportida Ozarbayjon poytaxti Bokuda o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan navbatdagi jahon birinchiligida muvaffaqiyatli ishtirok etgan yosh «Charm qo'lqop» ustalari karnay- surnaylar bilan kutib olindi.

Shunisi quvonarliki, 50 dan ortiq mamlakatning yosh sportchilari orasida bizning bokschilarimiz 1 ta oltin, 2 ta kumush, 2 ta bronza medalini qo'lga kiritib qaytdilar. Jumladan, 57 kilogramm vazn toifasida ringga chiqqan qo'qonlik tengdoshingiz O'ktam Rahmonov finalgacha yetib bordi. U Janubiy Koreya, Belarus, Qozog'iston va Rossiyadan kelgan o'z tengdosh bokschilarini muddatidan oldin mag'lubiyatga uchratdi.

Finalda esa unga ozarbayjonlik Yevropa chempionati ishtirokchisi G'aybatulla Xojjaliyev raqib bo'ldi. Jahon birinchiligini qo'lga kiritish O'ktamjon uchun ancha omadli bo'ldi. U bir daqiqa ichida kuchli raqibni nokautga uchratdi.

Biz O'ktamjonni katta g'alabasi bilan qutlar ekanmiz, unga boks qiroli bo'lishini niyat qildik. Zero, bunga shubhamiz yo'q.



A'LOCHILAR

Aziz bolajonlar! Yangi o'quv yili boshlanishi bilan «A'lochilar» sahifasiga Sizlardan ko'plab maktublar kelayotgani bizni quvontirmoqda. Ushbu tanlovni davom ettirgan holda uning shartlarini Sizlarga e'lon qilmoqdamiz. Endi tanlovda faqatgina o'rta ta'lim maktablarining bitiruvchilari va kasb-hunar kollejlarning 2-bosqich talabalari ishtirok etadilar. Gazeta sahifalarida e'lon qilingan a'lochi o'quvchilar o'quv yilining 2-choragi yakunida tahririyatga taklif qilinadi va shu kuni g'olib aniqlanadi. Sovg'alar yangi yil arafasida o'z egalariga topshiriladi.

OILANING KENJASI

Xojiqulov Azamat Abduhalimovich 1993-yil 11-martda Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi Dashnobod qishlog'ining Bodomzor mahallasida tug'ilgan. Oilasining kenja farzandi. 2000-yil Rahmon Mirzayev nomidagi 19-o'rta ta'lim maktabining 1-sinfiga qabul qilingan. Hozirgi kunda Azamat shu maktabning 7-«V» sinfiga a'lo baholarga o'qimoqda. Adabiyot, fizika, matematika fanlariga qiziqadi. Shu fanlar bo'yicha to'garaklarga muntazam qatnashib kelmoqda. Bundan tashqari, bo'sh vaqtlarida she'rlar ham yozib turadi.

Maktab direktori: **Mahbuba YO'LDOSHEVA**



BUGUNNING



«YANGI AVLOD»LARI

Hayotdagi shiori:

Hayotda mavjud qiyinchiliklarni o'z san'ati bilan yengib o'tish va san'ati orqali insonlar ko'nglida mehr-muhabbat uyg'otish.

Yoqtirgan fani:

musiqa, adabiyot va ingliz tili.

Sevib o'qiydigan kitobi:

G'afur G'ulomning «Shum bola» asari, O'tkir Hoshimovning hikoyalari.

Filmi: «Osmondagi bolalar», «Titanik».

Qo'shiqchisi:

Riana va Rayhon.

Sport turi: suzish.

Taomi: oshni juda yaxshi ko'radi.

Rangi: yashil – bu rang unga ozodlik ruhini beradi.

Xorijiy tillari:

ingliz va rus tillarini mukammal o'rganishga harakat qildi.

San'atdan tashqari qiziqishlari:

bo'sh vaqtda raqs, badiiy gimnastika bilan shug'ullanishni va rasm chizishni yoqtiradi.



ENG KATTA ORZUSI

Kelajakda mashhur qo'shiqchi bo'lishni va yurtimiz ozodligi va hurligini o'z qo'shiqlari orqali madh etishni xohlaydi. O'zbek qo'shiqchilik san'ati rivojiga hissasini qo'shish – uning eng katta orzusi. «Yangi avlod» festivali laureatligiga sazovor bo'lish orzusi tomon tashlangan ilk qadami bo'ldi. Shunday ekan, festival boshqa bolalar uchun ham ana shunday poydevor bo'lib xizmat qilishini xohlaydi.

Bobur NAZARMUHAMMEDOV tayyorladi

Kandalar

Hilola. To'rt yashar.

– Uyinglarda kim bor, Hilola?

– Hamma bor. Buvijon ovqat qilyaptila. Adajon aroq ichayaptila. Ayajon Baxtini «ata-ta» qilib, endi ishtonini yuvayaptila.

* * *

Jahongir. Olti yashar.

– Ayajon. Nega dadajonning sochlari yo'q?

– Dadajonning ko'p o'ylaydilar-da, o'g'lim. Dadajon aqllilar!

– Bo'lmasa, nega sizning sochingiz ko'p?

– O'chir ovozingni, zumrasha!

* * *

Dilorom. Besh yashar.

– Jevachkandan Shohruhga ham berdingmi, Dilish?

– Berdim.

– Nechtasini?

– Hammasini. Qog'ozini!

* * *

Humoyun. Olti yashar.

– Adajon, bugun bog'chamga bormayman. Oyog'im og'riyapti.

– Bo'пти. Ko'chaga chiqmaysan. Velosiped minmaysan!

– Oyog'im velosiped minishga emas, bog'chamga borishga og'riyapti!

* * *

Muhammadyor. Olti yashar.

– Muhammadyor, agar bog'changda odabli bola bo'lib yursang, maktabda, keyin institutda a'lo o'qisang, zo'-o'-o'r odam bo'lasan! Puling ko'p bo'ladi, hamma seni hurmat qiladi. «Mercedes» olasan. Chiroyli uylarda yashaysan...

– Opajon, siz bog'chada odobli bo'lganmisiz?

– Albatta.

– Yaxshi o'qiganmisiz?

– Albatta.

– Bo'lmasa, nega menga qacho-o-ondan beri pullti o'yinchoq mashina olib berolmaysiz?!

O'tkir HOSHIMOV

Abdulla QAHHOR TAVALLUDINING 100 YILLIGIGA

Ushbu topqirlik mashqi tavalludining yuz yilligi nishonlanayotgan atoqli ustoz adib, O'zbekiston xalq yozuvchisi

Abdulla Qahhorning «O'tmishdan ertaklar» qissasi asosida tuzilgan. Javoblar shaklda belgilangan xonadan raqam atrofiga soat mili yo'nalashida yoziladi.

1. Asarga epigraf qilib olingan: «Eshilib, to'lg'anib ingranadi kuy, Asrlar g'amini so'ylar «Munojot». Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga, Qanday chiday olgan ekan odamzod!»

misralari muallifi, atoqli shoir.

2. Qismati asarning «Hur qiz» bobida bayon etilgan usta Abdurahmon qizining ismi.

3. Asar ijodkorining otasi temirchilik kasbi bilan yasagan buyumlardan biri.

4. Masjid xonaqosida ochilgan jadid maktabida G'afurjonga tahsil bergan So'fi eshonning ismi.

5. O'sha davrda hukm surgan eski maktabdagi tartib va o'qitish usullari o'rniga yangi tartib va ta'lim-tarbiya usuli joriy qilish harakati qatnashchisi.

6. Asar qahramonlari yashagan qishloqlardan biri.

7. Temirchilikda qo'raga havo yuboruvchi asbobni ishlatuvchi.

8. Qissadagi bosh qahramonning ismi.

9. Asarning «Arafa» bobidagi satrlardan: «...ning o'rtalarida javob berilgan mardikorlar javzaning boshlarida bittadan, ikkitadan bo'lib kela boshladi».

10. O'sha davrda mutolaa qilingan kitob nomidan: «Kitobi... durur».

11. Asarning bosh qismidagi «Bir-ikki so'z» bobida qayd etilgan hikoyalardan birining nomi.

12. Chor hukumati tomonidan urush davrida mamlakat ichkarisidagi qora ishlarga Turkiston xalqlaridan safarbar qilingan kishi.

13. Qishloqda ilk bora temirchi Abduqahhor sotib olgan tikuv mashinasining nomi.

14. Qissaning «Ko'zalar» bobi satrlaridan: «Oradan bir necha kun o'tib, ...temiryo'lining qaysi bir stansiyasida jang bo'ldi. Ergash temiryo'l stansiyasini tor-mor qilayotganida Qo'qondan bir poyezd askar kelib qoldi, deyshdi».

15. Asar muallifi tahsil olgan, yangi usuldagi, Muhammadjon qori maktabida o'qitilgan, Abdulla Avloniy yozgan darslik nomidan: «Ustodi...».

16. Madrasada tahsil ko'rgan o'qimishli kishi.

17. «Oqqoshshoning arzandasi» bobidan: «... degan yigit mardikor puliga yerini sotib bermoqchi bo'lgan ekan, yuzboshi yarim baho qo'yibdi».

18. Yoshligida kasallik tufayli vafot etgan, asar bosh qahramonining ukasi.

19. Temirchi Abduqahhorning shogirdi.

20. Qissa ijodkorining eng birinchi muallimi, so'fi.

21. Qissaning muqaddima o'rmida keltirilgan bobida qayd etilgan qishloq nomlaridan biri.

22. Asardagi bosh qahramon dadasining onasi va amakisining uylari joylashgan shahar.

23. «Odam zavodi» bobida bayon etilgan taqachi ustaning ismi.

24. Temirchi Abduqahhor qishloqda birinchi bo'lib mingan «shayton arava»ning asl nomi.

Tuzuvchi: F. ORIPOV

USTA VA CHARXPALAK

Shoyim BO'TAYEV



Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

(Ertak-qissa)

– Ammo men o'shanda o'zimni eng yuksakda turganday his etgan edim, – dedi to'ng'ich Hasan shirin xotiralarga berilayotgandek. – O'shanda bildimki, yuksalish uchun faqat tepalikka chiqish shart emas ekan.

– Ajoyib fikr, – dedi uchinchi Hasan.

– Menga u yerda ajoyib olamni ko'rish nasib etdi, – so'zida davom etdi Hasan. – Yerning qa'riga qanchalik chuqur kirib boraverganing sayin shunchalik uzoq o'tmish bilan to'qnash kelayotgandek bo'laverar ekansan. Rostini aytсам, men u yerda guvoh bo'lgan ajoyib olam, o'tmishdan kelayotgandek tuyulgan guvillagan tovushning sehri tufayli tepaga ko'tarilishni aslo-aslo istamasdim.

– Hozir ham istamaysanmi?

– Yo'q.

– Nimani istaysan o'zi?

– Yana bir bora quduq tubiga tushishni.

SAVDOGAR

Ko'chani adog'ida bir savdogar yashar edi. U Ustaniyam, uning ishiniyam ko'p ham tan olmasdi.

Shu savdogar bir kuni kutilmaganda Ustani yo'qlab kelib qoldi. Ular salom-alik qilib ko'rishishdi. Usta uni uyga kirishga taklif qildi. Savdogar unamadi.

– Bir ish yuzasidan maslahatlashgani keluvdim, – dedi.

– Qani, eshitaylik-chi, qo'limizdan kelsa, aqlimiz yetsa maslahatni sizdan ayarmidik, – dedi Usta.

Savdogar bu gapdan xursand bo'ldi.

Keyin darhol qovog'i ochildi.

– Odamlar mendan ko'ra eshagimni aqlli hisoblashayapti, – dedi savdogar dabdurdustdan.

Usta o'ylanib qoldi.

Bo'lsa bordir-da, ko'pchilik bir narsani bilib aytadi-da, xayolidan kechdi Ustaning.

So'ngra tilida:

– Nahotki? – deganicha o'zini ajablantirganday ko'rsatdi. – Buning sababini bilsak bo'ladimi?

– Bilasiz, men soyning naryog'idagi

qishloqdan tuz olib kelib sotaman, – dedi savdogar Ustaning bilmaydigan narsasini, bilasiz, deganicha. – Eshagimning ustiga tuz to'la qopni ortib, u nobakorni ariqdan kechdirib o'tar edim. Bir gal eshagim munkib ketib, qopga suv tegib, ancha tuz erib ketdi. Tuz erigach, eshak o'z yukining yengillashganini payqab qoldi va suvga sho'ng'ib, barcha tuzimni eritib oqizib yubordi. Ikkinchi, uchinchi... xullas, har gal shunaqa qilib meni xonavayron qilyapti. Nobakorga kaltak ham kor qilmayapti.

Bu voqeani eshitib, Usta kuldi.

Mening ustimdan kulmoqda, degan xayolda uning kulganidan savdogar xafa bo'ldi.

– Har qanday jonzod ustiga og'ir yuk tushganda undan tezroq qutulgisi keladi, – dedi Usta savdogarga. – Eshakning aqli bo'lganida sizning urganingiz, koyishingiz kor qilib, suvga sho'ng'imagan, tuzni oqizmagan bo'lardi. Lekin endi uni so'yib yuborsangiz ham bu qilg'ini tashlamaydi.

– Nima qilsam ekan? – Ustaga jovdirab tikildi savdogar. – Eshakni sotib, o'rniga boshqasini olsammikin?

– Boshqa eshak olsangiz ham bu qiliqni takrorlayveradi, – dedi Usta. – Siz yaxshisi shu eshagingizni tarbiyalang.

(Davomi bor.)

KUTILMAGAN TASHRIF


Maktabda bir kun

Erta bilan yo'lga tushgan «Tong yulduzi» jamoasi soat 11⁰⁰da Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi Yo'ldosh Oxunboboyev nomidagi 9-o'rta ta'lim maktabiga kirib bordi. Kutilmagan uchrashuvdan quvonib ketgan o'quvchilar bir zunda faollar zaliga yig'ilishdi. Shundan so'ng jonli suhbat boshlanib ketdi. Gazeta bosh muharriri To'lg'in Hayitov o'quvchilarni sinash maqsadida ularga bir necha savollar bilan murojaat etdilar. Ushbu savollarga 8-sinf o'quvchilaridan Dilshod Abdulkarimov, Nodir Olimov, Husniddin Hayitboyev, 9-sinf o'quvchilaridan esa Xosiyat Yo'ldosheva, Abdulla Saraboyev, Maxsuma Yo'ldoshevalar to'g'ri javob berib, sovg'alar bilan taqdirlandilar. O'quvchilarning javoblarini tinglab o'tirgan jamoa ularning juda zukko va bilimdon ekanliklariga yana bir bor ishonch hosil qildilar.

O'quvchilar bilan bo'lgan maroqli suhbatdan so'ng davomatni tekshirish uchun darslarga ham kirib bordik.



BUGUN DARSDA KIM YO'Q?



o'zi bilan, qolaversa, ota-onasi bilan suhbatlashib, sababini aniqlab, ko'p narsaga oydinlik kiritib olaman. Oilaviy sharoitlari bilan yaqindan tanishib, iloji boricha ularni tushunishga harakat qilaman. Masalan, o'quvchim Usmonali Mirzaliyevning ota-onasi farzandlarining besabab dars qoldirishlariga yo'l qo'ymaydilar. Ayrim hollarda esa...

«O'G'LIMNI MAKTABGA O'ZIM YUBORMAYMAN»

Soat 13⁰⁰. Usmonali Mirzaliyevning onasi Mavjuda MIRZALIYEVA:

– Sovuq tushishi bilan nima uchundir bolalar tez-tez kasal bo'lishadi. Kechqurun isitmasi baland bo'lgan bolani har qanday

ota-ona ham maktabga yubormasa kerak. Gripp bilan maktabga borgan o'quvchining kasalligi boshqa sinfdoshlariga ham yuqishi mumkin. Ana shunday holatlarda o'g'lim: «Oyijon, maktabga boraqolay, dars qoldirsam, ustozimiz xafa bo'ladi. Keyin o'zim ham darslardan qolib ketaman-ku», deydi. Bola-da, tushunmaydi. Uning salomatligi nafaqat menga, balki o'zi uchun ham muhim. Uch kun qimirlamay yotsa, oyoqqa turib ketadi, shamollashi ham qaytalamaydi. Shularni o'ylab, farzandlarim kasal bo'lib qolishsa, o'zim ularni maktabga yubormayman. Kecha biroz mazasi bo'lmaganligi sabab bugun shifoxonaga olib chiqqan edim. Ertaga albatta maktabga boradi. Chunki u o'qishni hamma narsadan ustun qo'yadi.

DARSDAN «QOCHGANIM»NING SABABI...

Soat 14⁰⁰. Nigora QO'CHQOROVA:

– Maktabga ketayotib, yo'lda keksa bir onaxonni og'ir sumka ko'tarib ketayotganini ko'rib qoldim. Sumkani ko'tarib, manzilgacha eltib, maktabga qaytib kelgunimcha darsimizning 30 daqiqasi o'tib ketgan ekan. Dars tugagandan so'ng voqeani ustozimizga aytib berdim. Ustozimiz: «Agar rost gapirayotgan bo'lsang, juda savob ish qilisan. Bugungi o'tilgan darsni sinfdoshlaringdan so'rab, o'qib olgin. Uyga berilgan vazifani birinchi bo'lib sendan so'rayman», dedilar.



DARS KERAKMI YO SAVOB?..

O'quvchilar, ularning ota-onalari, ustozlari fikrini tinglab, shunday xulosaga keldik: ustoz ham, Nigora ham bizningcha to'g'ri yo'l tutdilar. Hayotda nimalar bo'lmaydi, deysiz. Nima bo'lganda ham inson odamiylikni unutmasligi kerak, shunday emasmi? Aks holda, ustiga kitob ortgan eshakdan farqimiz qolmasdi... Bu bilan o'quvchilarni darsga bormay, kishilarning hojatini chiqarib yuravering, deya da'vat qilayotganimiz yo'q. Aksincha, o'quvchilar aqlli, odobli, hojatbaror bo'lish bilan birga darslarini ham qoldirmay o'qisalar, ota-onalari faxrlanadigan farzandlar bo'lib yetishishlariga imonimiz komil.

Aziz o'quvchi! Siz ham dars qoldirasizmi? Nima uchun? Bir sirni Sizlarga oshkor qilamiz, do'stingiz «Tong yulduzi» sizning maktabga ham kutilmaganda tashrif buyurishi mumkin. Ana shunda uyalib qolmang.

Gulyuz BAHODIR qizi

G'IYBATNING QATTIQ GUNOHLIGI HAQIDA

So'z ichraki, yolg'on erur nopisand.

Alisher Navoiy

* * *

G'iybat – eng katta gunoh hisoblanadi. Shu bois barcha ulug' zotlar, allomalar g'iybat qilishdan tiyilganlar.

* * *

Allomadan so'radilar:

– G'iybatning qanday ziyoni bor?

U javob qildi:

– G'iybat qilingan joydan baraka qochadi.

– Oilada g'iybat qilinsa-chi?

– U oilada fayz-baraka bo'lmaydi.

– Bolalar g'iybat qilishsa-chi?

– Gunohlari ota-onalarining yelkalariga og'ir yuk bo'lib tushadi.

* * *

Rostgo'y insonning ikki dunyosi obod bo'ladi.

RIVOYAT

Akasi adirda olma bog'i yaratdi. Uning olmalari serhosil va shirin bo'lib, ovozasi butun viloyatga yoyildi. Ukasi choyxonada uni g'iybat qildi.

– Akam bog'idan shunchalik hosil olsa-da, menga qarashmaydi, – dedi hasad bilan.

Akasining g'anamlari uni pinjiga kirib, g'iybatni avj oldirdilar. Maqsadlari akasini kasodga uchratish edi. Chunki ular mazasiz va mayda olmalarini sotolmay, tish qayrab yurgan edilar.

Uka ularning bardorlariga uchrab, akaga tish qayradi va boshqa adirda olma bog' yaratishga kirishdi. Ammo oradan to'rt-besh yil o'tsa ham, uning bog'i o'zi orzu qilgandek gullab-yashnamadi. Olma mevalari quruq va taxir bo'lib qoldi. «Baxilning bog'i ko'karmaydi», deb shuni aytadilar.

Oz-oz o'rganib, dono bo'lar



Va Bolakay haqida qissa

Ana endi Karlson bilan Bolakayning tanishuviga o'tsak ham bo'laveradi. Odatdagiday osuda kuz kunlarining biri edi. Bolakay o'z xonasida, deraza oldida xayol surib o'tiribdi. Deraza lang ochiq. Osmonda birin-sirin xira yulduzlar paydo bo'ldi. Shoyi parda hilpiraydi, go'yo u haligi yulduzlar yuzidagi xiralikni yo'qotmoqchidek porlanglar, ko'k chiroqlar demoqchidek bo'ladi. Bolakay xo'rsindi. Shu payt xuddi qovog'arining g'o'ng'illashiday bir ovoz eshitilgandek bo'ldi. Ovoz tobora kuchayib, yaqinlashib kelardi. Keyin desangiz, yo' ajab, deraza oldidan kichkina, baqaloq bir kishi zuv etib uchib o'tdi. Bu – tomda yashaydigan Karlson edi. Biroq, Bolakay hali uning kimligini bilmasdi.

Karlson Bolakayga sinchiklab nazar soldi-da, uchib ketdi. U havoladi, tomni ikki marta aylandi, mo'rkon atrofini ko'zdan kechirdi, keyin yana deraza oldiga keldi. Motorini vag'illatgancha kichkina samolyotga o'xshab deraza oldidan ikki-uch karra uchib o'tdi. U xuddi, ko'rib qo'y men qanaqaman, bola, deb maqtanayotganga o'xshardi.

Davomi. Boshi o'tgan sonda.

G'ALATI APPARAT

– Xo'sh, nima qildik? Aytib qo'yay, o'z ixtiyori bilan aybiga iqror bo'lganning gunohi yengillashadi. O'z vaqtida aybini tan olish – bu... – Azamat munosib so'z qidirib, bir zum o'yg'a toldi.

Shu tobda xayolida yarq etgan rejasidan o'zi ham quvonib ketdi.

– Demak, yaxshilikcha aytmaysizlar, shundaymi? Men senlarni sinamoqchi edim. Xohlasam, kim qilganini bilib olaman. Biroq, unda kech bo'ladi. O'z vaqtida aybiga iqror bo'lmagan aybdor jazoning ham og'irini oladi.

Azamat ukalariga sinovchan tikildi. Ular bu po'pisaga ham parvo qilishmadi.

– Ishonmayapsanlar-da, a? Hay, mayli, ertaga to'garakdan olib kelganimda o'zlaring ham qoyil qolasanlar.

Ukalar yalt etib Azamatga, so'ng bir-birlariga qarashdi. Beixtiyor sergak tortishdi.

– Nimani... olib kelasan? – Asil chidolmay so'radi. Azamat xuddi shu savolni kutib turgandi.

– To'garakda g'alati bir apparat yasadik, hajmi mana buncha, – Azamat jiddiy, sirli tarzda hikoya qila ketdi. – O'zi elektr toki bilan ishlaydi. Odamning ko'kragiga qo'ysang, ichidagi hamma gapni aytib beradi. Hech kimga, hech qachon aytmagan siringni ham bilib olaveradi. Senlarga qanday tushuntirsam ekan, shu... xuddi rentgenga o'xshaydi-da. Ammo o'zi yengil, Anora ham ko'tara oladi. Xullas, agar devorga kim chizganini aytmasanglar, o'sha apparatni olib kelishga majburman. Hazillashayotganim yo'q!

Alisher va Asil akasining gaplari qanchalik jiddiy ekanligini bilmoqchi bo'lgandek qiziqsinib, sergak tortishdi. Ammo savol berishga botinishmadi.

– Apparatimiz bir necha marta sinovdan o'tgan, – dedi Azamat o'yilgan rejasini puxtalab. – Yaqinda militsiyaning kattasi kelib, mashinani haydab qochgan o'g'rilarni

Astrid LINGREN
Bolakay qilt etmay bu uchar odamga tikilib qoldi. Hayratdan badani jimirlab, g'alati bo'lib ketdi. Yuragi dukilladi. Axir u hech qachon mushtdakkina semiz odamning uchib yurganini ko'rmagan edi-da!

Uchar odam deraza oldida bir lahza muallaq turdi-yu, so'radi:

– Og'ayni, bir daqiqa shu yerga qo'nsam maylimi?

– Bemalol, – dedi Bolakay, – nima, uchaverib charchab ketdingmi?

– Yo'g'e! – dedi kulib Karlson. – Men dunyodagi eng tolmas uchuvchiman, nega charchar ekanman. Shunchaki, sen bilan ikki og'iz gaplashmoqchiman, xolos. Oting nima?

– Asli otim Svante. Lekin hamma meni Bolakay deb chaqiradi. Sening oting nima?

– Men Karlsonman. Tomda yashayman. Qo'lni tashla, Bolakay! Salom!

– Salom, Karlson!

– Yoshing nechada, Bolakay!

– Yetti yoshga kirdim.

– Juda soz, do'stim! – dedi Karlson va motorini o'chirib, derazadan hatladi, – ana endi bemalol gaplashsak bo'ladi.

– O'zing nechaga kirgansan? – deb so'radi Bolakay.

– Men-mi? Men ayni kuchga to'lgan bir yoshdaman. Boshqa hech narsa deya olmayman.

Bolakay ayni kuchga to'lgan odam necha yoshda bo'lishini bilmasdi. Shuning uchun tortinibroq so'radi:

– Odam qancha yoshida kuchga to'ladi?

– Istagan yoshida! – cho'rt kesdi Karlson va o'zicha kulib qo'ydi, – buni mana mening misolimda ham ko'rsa bo'ladi. Men kelishganman, aqliman, yoshimga yarasha pishiq-puxtaginaman!

Karlson shunday deb kitob javoniga yaqinlashdi. U yerda spirt bilan yuradigan bug' mashina turardi. Karlson shartta qo'liga oldi, aylantirib tomosha qildi va:

– Ke, Bolakay, buni yurgizib ko'ramiz, – dedi ko'zlari chaqnaq.

– Dadam urishadi, – dedi Bolakay, – Boss akam yo dadam bo'lmasa, mashinaga tegish mumkin emas.

Davomi bor.

aniqlashda yordam beringlar, deb iltimos qildi. To'garak rahbarimiz bilan borib, darrov aniqlab berdik. Apparatning yana bir g'alati odati bor: jinoyatchilarning qilmishlarini hamma joyda, hammaga gapiraveradi.

Alisher xuddi bir nima demoqchiday yelkasini g'alati qimirlatib qo'ydi. Asil tik turaverib charchadi shekilli, devorga suyanib qoldi. Ammo har ikkisi boyagi-boyagidek miq etmasdi.

Azamat eng oxirgi chorani ishga soldi:

– Agar ishonmasanglar, hoziroq borib apparatni olib kelamiz, hali qorong'u tushgani yo'q. Anora, oyim ishdan kelsalar, meni to'garakka ketdi, degin. Xo'p, men ketdim. Endi o'zlaringdan ko'ringlar. Apparat senlarga rahm qilib o'tirmaydi! – Azamat shartta orqasiga o'girildi-yu, eshikka qarab yurdi.

Shu mahal Alisher piqillab yig'lab yubordi. Azamat darhol orqasiga qaytdi:

– Sen chizuvdingmi? – kutilmagan yig'idan hamma sir oshkor bo'lsa-da, Azamat baribir so'roqdan o'zini tiyolmadi. Alisher hiqillab bosh irg'adi. Azamat axiyri aybdorni topganidan beixtiyor suyunib ketsa-da, ukalarini ancha qiynab qo'yganidan ko'ngli biroz g'ash tortdi. Cho'ntagidan kichkina ro'molchasini chiqarib, Alisherning ko'z yoshlarini artdi:

– Qo'y, yig'lama. Oldinroq aytganingda, bunchalik... Hay, mayli, hech kimga aytmaymiz. Faqat... Endi bunaqa qilmagin, xo'pmi? – Azamat devorga ishora qildi.

Alisher og'ir bir so'lish oldi-yu, «xo'p» deya boshini likillatdi.

Shodmon OTABEK



(Hikoya)

TAMOM.

Qizlar daftari

VATAN

Vatan nimadir o'zi?
Tug'ilib o'sgan makon.
Vatan nimadir o'zi?
Men uchun O'zbekiston.

Har tarafi gulzordir,
Chamanzor-u bo'stondir.
Biz kabi farzandlari
Unga doim qalqondir.
Fayoza ISMOILOVA

Sanobar Shodiyeva Sariosiyo shaharchasidagi 2-maktabda o'qiydi. Yaqinda uning ilk kitobi, «Ona tilagi» she'rlar to'plami bosmadan chiqdi. Qutlaymiz seni Sanobar! Sira bo'shshma!



Ustoz – ilmning bog'i

Bilim olgan kishining
Ishlari ravon bo'lur.
Mehnat qilgan kishining
Yurti farovon bo'lur.

Maslahatim, tengdoshlar,
O'qishni afzal ko'ring.
Ustoz-u muallimga
Izzat-hurmatda bo'ling.

Ustoz – ilmning bog'i,
Shogird esa yaprog'i.
Bajaring har bir so'zin,
Yerga qaratmang yuzin.
Sanobar SHODIYEVA

BOLALIGIM

Hayot, buncha jo'shqinsan,
Yugurasan, yelasan.
Ko'z ochgan buloqlarni,
Ummonlarga berasan.

Zavq olaman tog'lardan,
Qirdagi gul-loladan.
Mitti yurak entikar,
Ochilgan shaloladan.

Men ham jajji buloqday,
Yugurib-yelgim kelar.
Ummonlarga qo'shilib,
El zavq bergim kelar.

Kamola ERGASHEVA



ILK MUVAFFAQIYAT

Bolalar, sizlar yurtimizning mashhur futbol yulduzlari Mirjalol Qosimov, Server Jepravov, Anvar Soliyev va Zayniddin Tojiyev kabi to'puralarimizga havas qilasiz. Ammo ularning bolalikdan sport olamidagi bir qancha sinovlari haqida bilmasligingiz aniq. Axir ular ham bolalar futbolida toblanib, so'ng katta maydonga qadam qo'ygan-da.



Yaqinda yurtimizning bosh jamoasi «Paxtakor» maydonida bo'lajak futbolchilarning imtihoni bo'ldi. Ushbu sinovda «Paxtakor» Bolalar futbol akademiyasining tajribali murabbiyi Lenur Yeremeyev qo'l ostida shug'ullanayotgan futbolchi bolalar yangi o'quv yilining birinchi sinovidan o'tdilar.

Biz sinovdan muvaffaqiyatli o'tgan bolalar bilan suhbatda bo'ldik:

Shohruh MAHMUDXO'JAYEV - jamoaning o'ng qanot hujumchisi:

- Lenur aka hech qaysi murabbiyga o'xshamaydilar. Har gal mashg'ulotlardan so'ng kayfiyatimizni ko'tarib turadilar. Asosiyi, mashqlardan keyin mashg'ulotlar uchun sizlarga rahmat, deb aytadilar. Bugungi imtihonda ham men murabbiyimiz bizni yaxshi ko'radi, degan fikrdan sira uzoq ketmadim. Natijada uzunlikka sakrashda eng yuqori natija 165-175 sm. bilan, yugurish va darvozaga aniq to'p uzatishda ham yaxshi baholar to'pladim.

Sardor SODIQOV - jamoaning darvozaboni:

- Men bu yildan Lenur Yerkinovich mashg'ulotlariga keldim. Ular ancha qattiqqo'l murabbiy ekanlar. Oyim bilan kelgan kunimizning o'zidayoq meni maydonda sinab ko'rdilar va «Ertaga hujjatlarini olib keling», deb aytadilar. Uch oylik mashg'ulotlardan

so'ng birinchi imtihondan yaxshi o'tdim.

Lenur YEREMEYEV, «Paxtakor» Bolalar futbol akademiyasining tajribali murabbiyi:

- Bugun bo'lajak futbolchilarning yana bir sinovini yakunladik. Bolalarning hammasi ham iqtidorli. Ammo maydon eng yaxshilarini tanlab olishimizni so'raydi. Biz ertaga yurtimiz dovrug'ini jahonga olib chiqadigan, o'zbek futbolini dunyoga ko'z-ko'z etadigan bolalarni tarbiyalashdek muhim ishning boshida turar ekanmiz, bunday mas'uliyatni doimo his qilib yashaymiz. Albatta bugungi sinov oxirgisi emas. Har uch oyda bu sinov yana takrorlanadi. Jamoaga esa kuchlilar saralanaveradi. Imtihondan o'tolmagan bolani futboldan ko'nglini sovutmaymiz. Ularni poytaxtimizning yaxshi jamoalariga, jumladan, «Chig'atoy» klubiga yuboramiz.

Bolalar, agar futbolchi tengdoshlaringizni mahoratini, futbol o'yinlarini, mehribon, o'z o'rnida qattiqqo'l murabbiy Lenur Yeremeyevning darslarini kuzatmoqchi bo'lsangiz, Markaziy «Paxtakor» stadioniga keling. Ularni shiddat bilan to'p surishlari va vaqtlarini behuda sarflamayotganliklari balki sizni ham qiziqtirib qolar. Futbol haqidagi qiziqishingiz hamda maktabingizdagi sport murabbiylaringiz haqida albatta bizga yozib yuboring.

Ma'mura MADRAHIMOVA, suratlar muallifi
Vitaliy MYASNIKOV

Bo'sh o'tirmay, bosh qotir!

			1				2				3				
	4	5				6	7			8	9				10
	11					12				13					14
15			16	17			18	19				20	21		
			22				23					24			
	25	26				27	28			29	30				31
	32					33				34					35
36			37	38			39	40				41	42		
			43				44					45			
	46	47				48	49			50	51				52
	53					54				55					56
57			58	59			60	61				62	63		
			64				65					66			
	67	68				69	70			71	72				73

Shakldagi belgilangan xonadan soat mili yo'nalishida raqam atrofiga:

4. Markaziy Osiyodagi daryoga nomdosh vodi.

6. Elektr quvvati o'lehoi birligi.

8. Ma'lum bir narsaning asosiy xususiyatlari belgilangan ko'rsatkich.

10. Donni unga aylantiruvchi

korxon.

16. Samarqand shahridagi tarixiy maydon.

18. Kuzpishar olma navi.

20. Yashil olamni o'rganuvchi fan.

23. Bezak buyumlarida ishlatiladigan havorang tusli ma'dan.

27. Axborot vositasida to'g'ridan-to'g'ri olib boriladigan mahalliy voqea-hodisaga oid xabar.

29. AQSH parlamenti nomi.

31. Belgilangan xodimlar bilan ish yurituvchi tashkilot.

37. Xonada suv jonivorlarini saqlash moslamasi.

39. Xorijiy davlatlar bilan rasmiy aloqa qilish uchun hukumat tomonidan vakil qilib tayinlangan lavozimli kishi.

41. Ertapishar poliz ekini.

46. Dunyoga taniqli daniyalik ertakchi adib.

48. Mudofaa maqsadida bunyod etilgan vositalar majmui.

50. Inshootning metall senchi.

52. Qovun navi.

58. Nabobatda ishlatiladigan spirt.

60. Musiqas asbobidagi asosiy parda.

62. Qadimiy hind tili.

67. Turkiyadagi yirik shahar.

69. Toshko'mirning eng kuchli energiya beruvchi turi.

71. «Buxoro tarixi» asarini yozib qoldirgan X asr tarixchisi.

73. Vodiydagi viloyatga nomdosh gullar shahri.

63. Musiqas yozuvi.

68. Uzun navi.

70. Ayyor yirtqich.

72. Yozuv asbobi.

BO'YIGA:

1. Gazlamaga pardo berishda ishlatiladigan ashyo.

2. Ro'zg'or buyumi, don tuyishda ishlatiladigan anjom.

3. Badiiy asar ijodkori.

11. Sport musobaqasining hal qiluvchi bosqichi.

12. Davlat miqyosidagi biror sohani boshqaruvchi shaxs lavozimi.

13. Farishta, go'zal ayol.

14. Miqdor, son.

22. Abdurauf Fitratning she'riy to'plami.

23. Zamondosh kishilar.

24. Oila bunyod bo'lishidagi rasmiy marosim.

32. Bolgariyadagi oromgohlar shahri.

33. Avtomobillar poygasi.

34. Duradgorlik ashyosi, yupqa, ensiz, uzun yog'och.

35. Ezgu niyat yo'lidagi faoliyat.

43. Inert gaz.

44. Yaltiroq qimmatbaho tosh.

45. Geografiyada foydalaniladigan o'quv quroli.

53. Abxaziya hududidan oqib o'tuvchi daryo.

54. Suv manbai joylashgan inshoot.

55. Badiiy asarda voqeaning rivojlana borishiga sababchi bo'lgan hodisa.

56. Qimmatbaho, rangli metall.

64. O'rmon yirtqichi.

65. O'quvchi orzu qiladigan baho.

66. Biror mavzuga oid anjuman.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

SEVIMLI GAZETANGIZ ORQALI OTA-ONANGIZ, BUVA VA BUVILARINGIZ, USTOZLARINGIZ, QO'YING-CHI, YAQINLARINGIZNI TABRIKLAMOQCHIMISIZ?

MARHAMAT!

Respublika bolalari va o'smirlarining yagona gazetasi «Tong yulduzi»da «REKLAMA VA E'LONLAR» burchagi ish boshladi. Bu Sizga eng zarur yangilik va xabarlaringizni, taklif va tabriklaringizni gazeta sahifalarida E'LON QILDIRISH, namunali ishlaringizni respublikaga YOYISH, o'zingizga HAMKOR TOPISH imkoniyatini beradi.

Buyurtmangizning TEZ va SOZ, A'LO darajada bajarilishiga kafolat beramiz.

BOLALAR VA O'SMIRLAR IJODIYOT MARKAZLARI, MUSIQA MAKTABLARI, SPORT MAJMUALARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

«Tong yulduzi» sahifalaridan Sizlar tashkillashtirayotgan ko'rik-tanlovlar, san'at bayramlari, sport musobaqalariga ham keng o'rin beriladi. Amalga oshirayotgan ibratli ishlaringizdan respublikadagi barcha o'quvchilarni ham xabardor qilish imkoniyatidan unumli foydalanasiz, degan umiddamiz.

TASHKILOT, MUASSASA, BOLALAR VA O'SMIRLAR BILAN BOG'LIQ BO'LGAN BARCHA JAMOALAR DIQQATIGA!

«Tong yulduzi» Sizing zarur xabar, reklama va e'lonlaringizni respublika bolalari e'tiboriga sodda, tushunarli, sifatli, rang-barang va mazmunli qilib yetkazish kafolatini beradi.

BOLALAR VA ULARNING OTA-ONALARI, BUVA VA BUVIJONLARI, YAQINLARI, DO'ST VA DUGONALARI DIQQATIGA!

Bizda farzandlaringiz, tengdoshlaringiz, do'stlaringizga tug'ilgan kunlari, bayram va tantanalar munosabati bilan kutilmagan sovg'a taqdim qilish IMKONIYATI ham yaratildi. Gazeta orqali yaqinlaringizni tabriklasangiz (xohlasangiz fotosuratlarini bilan), bu qutlov

BOLALAR BADIY JAMOALARI, DASTALARI, TO'GARAKLARI DIQQATIGA!

Xabar bering, qachon, qayerda, qanday sana, bayram munosabati bilan konsert dasturlari namoyish etmoqchisiz? Gazetamiz orqali o'z konsertingizga minglab tomoshabinlarni taklif etishingiz mumkin.

ularga olam-olam quvonch bag'ishlashi tayin. Bu xayrli ishni ham GAZETAMIZ qoyillatadi.

Xullas, bizning imkoniyatlarimiz TEZ va SOZ!

Tabriklaringiz, yangilik va e'lonlaringizni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.
«Tong yulduzi» gazetasi tahririyatining «Reklama va e'lonlar» bo'limiga, deb yozing. Bu xususdagi barcha savollaringizga 144-27-25 yoki 144-63-08 raqamlari orqali javob olishingiz mumkin.
Boshqa viloyatlardagi buyurtmachilar telefon, faks orqali bog'lanib, o'z xabar va e'lonlarini bizga yetkazishlari mumkin.

Gazetamiz orqali reklama, e'lon, yangilik, xabar va tabriklar e'lon qildirishning BIRGINA SHARTI BOR: U HAM BO'LSA, «TONG YULDUZI»GA BIR YILGA OBUNA BO'LGANLIK HAQIDAGI OBUNA VARAQASINI KO'RSATISH.
«TONG YULDUZI» tahririyati

LITSEYLAR, KOLLEJLAR, TA'LIM MUASSASALARI RAHBARLARI DIQQATIGA!

Bilim maskaningizda qaysi soha, yo'nalish bo'yicha mutaxassislar tayyorlamoqchisiz va buning uchun qanday hujjatlar talab qilinadi? Qabul kunlaringiz qachon? Shular haqidagi e'lon va xabarlaringizni gazetamiz orqali chop ettirishingiz mumkin. Chunki sizlarning bo'lajak talabalaringiz bizning bugungi o'quvchilarimizdir. Bunday qulay IMKONni qo'ldan boy bermang!

RESPUBLIKA QO'G'IRCHOQ TEATRI, TOSHKENT DAVLAT SIRKI, BOLALAR KINO-TEATRLARI, YOSH TOMOSHABINLAR TEATRI RAHBARLARI DIQQATIGA!

Yil bo'yi bolajonlar uchun juda qiziqarli kinofilmlar, teatr hamda sirk tomoshalari, kecha va tadbirlar uyushtirishingizni yaxshi bilamiz. Afsuski, tomoshalaringiz har doim ham o'z muxlislarini topavermaydi. Sababi, ko'pchilik bolalar bunday tomoshalardan bexabar qolishadi-da.

Tomosha zallaringiz hamisha yosh tomoshabinlar bilan to'liq bo'lishini xohlasangiz, bu ishda Sizga yaqin ko'makchi bo'lamiz. Chunki barchamizning maqsad-maslagimiz yagona - bolalar ma'naviyatini yana-da boyitish.

TABRIKLAYMIZ!

Aziz farzandlarimiz Sevinch ISLOMOVning 2 yoshga va Elshodbek ABDURASULOVning 1 yoshga to'lishlari munosabati bilan tabriklaymiz! Dilbandlarimizning kelajakda aqlli, eliga munosib farzandlar bo'lib ulg'ayishlarini tilab qolamiz.

Oila a'zolari



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizayner va sahifalovchi:
Fazliddin SHOYODGOROV

Navbatchi:
Ozoda TURSUNBOYEVA

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMIU Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25 144-63-08
Tel/ faks: (99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

Gazeta «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.

Adadi - 19010
Buyurtma N: J 4071

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.